



Ключевые слова: *Узбекистан, занятость, экономическое развитие, неформальный сектор, рынок труда, демография, цифровая экономика, занятость молодежи, региональные различия, трудовые ресурсы, рабочие места.*

EMPLOYMENT, ECONOMIC DEVELOPMENT AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN

Jumanazarova F.K.

*Department of Social Sciences, University of Science and technology
senior teacher, T.f.f.d. (PhD)*

Ismatov Ulugbek

1st year student of the University of Science and Technology

Annatation: *This article analyzes the relationship between employment and economic development in Uzbekistan. It examines the composition of employment, the impact of the informal sector, regional disparities, youth and female employment, and the impact of the digital economy on jobs. The study highlights the challenges of economic growth and employment, provides practical recommendations for addressing them, and is a useful resource for policymakers and experts.*

Keywords: *Uzbekistan, employment, economic development, informal sector, labor market, demography, digital economy, youth employment, regional disparities, labor resources, jobs.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida aholi bandligini ta'minlash har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mehnat bozori barqarorligi, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarining o'sishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu bois aholi bandligi nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy kategoriya sifatida ham namoyon bo'ladi. Qolaversa, mazkur sohani huquqiy jihatdan tartibga solish har bir davlatning

asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham dunyoning rivojlanayotgan davlatlaridan biri sifatida aholini ish bilan ta'minlashni, avvalo, qonunchilik darajasida mustahkamlash yo'lini tutgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yildagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni, 2018-yildagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonunlari hamda 200 dan ortiq mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari aholini ish ta'minlashning huquqiy poydevorini tashkil etadi¹⁷. Shuningdek, fuqarolarning

¹⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/17/bandlik-agentligi/>.



huquqlari buzilgan holatlar bo'yicha javobgarlik chora-tadbirlari ko'zda tutilgan¹⁸.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari kuzatilmoqda. Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat iqtisodiyoti so'nggi yillarda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolgan bo'lib, bu jarayon yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining sezilarli o'sishi qayd etilgan hamda iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda.

Biroq iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda aholi sonining tez ortib borishi mehnat bozoriga qo'shimcha bosimni yuzaga keltirmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi 38 milliondan oshgan bo'lib, har yili yuz minglab yoshlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda¹⁹. Bu esa bandlikni ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda iqtisodiy rivojlanish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, iqtisodiy o'sish yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, yuqori bandlik

darajasi ichki talabni oshirish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning tarkibiy xususiyatlari, ya'ni qaysi tarmoqlar ustuvor rivojlanayotgani bandlikning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda aholi bandligi tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, demografik omillar, yoshlar ulushining yuqoriligi, norasmiy bandlik darajasining sezilarli ekanligi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar hamda tashqi mehnat migratsiyasi bandlik jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi mehnat bozorining tarkibiy o'zgarishlariga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, aholi bandligi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi O'zbekistonda aholi ish bilan ta'minlanishi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini tizimli tahlil qilish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy holatini o'rganish, bandlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 1994.

¹⁹ Statistika agentligi. 2024-yil - Global Economic Prospects / regional hisobotlaridan olingan.



ASOSIY QISM

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi, tashqi iqtisodiy ochiqlikning ortishi hamda institutsional islohotlar iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti Markaziy Osiyoda eng tez o'sayotgan iqtisodiyotlardan biri bo'lib qolmoqda, xususan, 2023-2025-yillarda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'atlari bo'yicha o'rtacha 6-7 foiz atrofida saqlanib qolgan²⁰.

Makroiqtisodiy barqarorlik infyatsiya darajasining nisbatan nazorat ostida bo'lishi va fiscal siyosatning izchilligi bilan ham izohlanadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) tahlillariga ko'ra, O'zbekistonda infyatsiyani pasaytirish va monetar siyosatni qat'iyashtirish orqali makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda (IMF, 2024). Iqtisodiyot tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xizmatlar sohasida YAIM tarkibida yetakchi o'rinni egallab, sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan tezroq rivojlanmoqda. Bu jarayon iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim belgisi bo'lib, bandlik tuzilmasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlarida qayd etilishicha,

iqtisodiyotning xizmatlar sektoriga siljishi ish o'rinlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda, biroq bu ish o'rinlarining sifati va barqarorligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda (UNDP, 2023). Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ichki iste'mol, investitsiyalari va eksport salohiyati qayd etiladi. O'zbekistonga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalari hajmining ortib borishi sanoat va infratuzilma rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratmoqda. Bu holat, ayniqsa, Toshkent shahri va unga tutash hududlarda olib borilayotgan qurilish loyihalarida yaqqon namoyon bo'ladi.

Aholi bandligi iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida oladigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining bandlik darajasi notekis taqsimlangan. Yirik shaharlarda, xususan, Toshkent shahrida xizmatlar va sanoat rivojlanganligi sababli bandlik darajasi yuqori bo'lsa, ayrim qishloq hududlarida ish o'rinlari yetishmoqchiligi kuzatiladi. Bu esa ichki va tashqi migratsiya oshib borayotganligining asosiy omillaridan biridir. Tashqi migratsiya esa dunyodagi qaltis siyosiy vaziyat sababli har doim ham O'zbekiston fuqarolari uchun xavfsiz bo'lavermaydi.

Aholi bandligi va ularning daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik ham e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan munosabatlar doirasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash

²⁰ Jahon banki O'zbekistonning 2024 yildagi iqtisodiy o'sishini baholadi. <https://kun.uz/>.



va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston aholisining 5,2 mln qismini ish bilan ta'minlash ko'zda tutilganini ta'kidlash lozim. Natijada, O'zbekistonda 2025-yil yakunida real daromadlarning o'sishi 9,2% ni tashkil etdi, bunda chetdan pul o'tkazmalari asosiy omil bo'ldi. o'tkazmalarning umumiy daromaddagi ulushi 16,5% dan 21% gacha keskin oshdi²¹.

O'zbekiston mehnat bozori o'ziga xos demografik va institutsional xususiyatlarga ega. Eng muhim omillardan biri bu demografik bosimdir. Aholining katta qismi yoshlar hisobiga to'g'ri kelganligi bois ularni ish bilan ta'minlash davlatimiz oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bunga nafaqat yuqori tizimdagi davlat organlari va muassasalari, balki mahalliy davlat organlari ham mas'ul ekanligi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan bot-bot ta'kidlanmoqda. Natijada, hududlardagi mahallalar kesimida "Mahalla yettiligi" doirasida ijtimoiy xodimlar ham faoliyat yuritib, aholini ish bilan ta'minlanishi bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yuritish, aholiga bandlik masalalarida ko'maklashish kabi vazifalarni amalga oshirmoqda.

Iqtisodchi olimlar, jumladan, A. Sen va J. Stiglitzlar ta'kidlaganidek, iqtisodiy rivojlanish faqat YAIM o'sishi bilan emas, balki inson kapitalining rivoji bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, bandlik sifati - ya'ni barqaror va yuqori

daromadli ish o'rinlari yaratish masalasi muhim hisoblanadi.

Norasmiy bandlik O'zbekiston mehnat bozorining muhim xususiyatlaridan biridir. Ko'plab aholining o'zini o'zi band qilishi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik keng tarqalgan. Bu holat bir tomondan aholi daromadlarini ta'minlasa, ikkinchi tomondan soliq bazasining torayishiga va ijtimoiy himoya tizimining cheklanishiga olib keladi. Hozirgi kunda aholi orasida norasmiy bandlikka barham berish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ular faoliyatini qonuniylashtirishda soliqlardan imtiyozlar berilishi, ssudalar ajratilishi, davlat subsidiyalari taqsimlanishi kabi imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. IT sohasi, masofaviy ish shakllari va platforma iqtisodiyoti yangi turdagi bandlikni shakllantirmoqda. Biroq bu jarayon an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishiga ham olib kelmoqda. Shu sababli mehnat bozori moslashuvchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda aholining zamonaviy dunyoga xos "hard skills" va "soft skills" ega bo'lishlarini ta'minlash ham davlatning qisman vazifasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan, Yoshlar ishlar agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi kabi davlat organlari aholining kompyuter savodxonligini oshirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni

²¹ 2025-yilda o'zbekistonliklarning umumiy daromadlari real hisobda 9,2% ga oshdi.

<https://kapital.uz/uz/umumiy-daromadlar-2025>.



o'rgatish uchun maxsus bepul kurslar tashkil qilmoqda.

XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekistonda aholi ish bilan ta'minlanishi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, aholi bandligini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning izchil sur'atlari yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, bu jarayonning sifat jihatlari, ya'ni barqaror va yuqori daromadli bandlikni ta'minlash masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda bandlik tizimi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, demografik omil aholining, ayniqsa yoshlar ulushining yuqoriligi mehnat bozoriga doimiy bosimni yuzaga keltirmoqda. Bu holat bir tomondan iqtisodiy rivojlanish uchun katta mehnat resurslarini taqdim etsa, ikkinchi tomondan yetarli miqdorda ish o'rinlari yaratishni talab etadi. Demografik dividenddan samarali foydalanish esa iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari norasmiy bandlikning yuqori ulushi mehnat bozorining muhim muammolaridan biri ekanligini tasdiqladi.

Norasmiy sektor aholining muayyan qismini daromad bilan ta'minlayotgan bo'lsa-da, u ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi, soliq tushumlarining kamayishi hamda mehnat unumdorligining pastligi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli norasmiy bandlikni qisqartirish va uni rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Bandlik tarkibidagi o'zgarishlar ham alohida e'tiborga loyiq. Qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmatlar sektoriga bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy rivojlanishning muhim belgisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq bu jarayon hali to'liq yakunlanmagan bo'lib, ayrim tarmoqlarda mehnat unumdorligining pastligi saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar yetishmovchiligi zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashishda muayyan to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyot va texnologik rivojlanishning bandlikka ta'siri ham yoritildi. Zamonaviy texnologiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga, an'anaviy kasblarning qisqarishiga ham olib kelmoqda. Bu esa mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish, aholini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin:



Birinchidan, iqtisodiy o'sish va aholi bandligi o'rtasida bevosita va o'zaro mustahkam bog'liqlik mavjud bo'lib, barqaror iqtisodiy rivojlanish bandlik darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Ikkinchidan, mehnat bozoridagi mavjud muammolar, xususan, norasmiy bandlik, hududiy nomutanosiblik, malakali kadrlar yetishmovchiligi iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Uchinchidan, demografik omillarni inobatga olgan holda, yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlarni kengaytirish zarur.

To'rtinchidan, iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtirish, ayniqsa sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali

yuqori samarali ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini modernizatsiya qilish, ta'lim tizimini yangi talablar asosida qayta shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Umuman olganda, O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish o'zaro uzviy bog'liq jarayonlar bo'lib, ularni uyg'un holda rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda izchil va kompleks siyosat yuritish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishish, balki aholining turmush darajasi va farovonligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/17/bandlik-agentligi/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 1994.
3. Statistika agentligi. 2024-yil - Global Economic Prospects / regional hisobotlaridan olingan.
4. <https://kun.uz/>.
5. <https://kapital.uz/uz/umumiy-daromadlar-2025>.